

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 4 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 4

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 4



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-4>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Ўзбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шнукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масъул қотиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

Мўминова Маъсума Ғолиб қизи
ф.ф.д., (PhD) вб. доцент

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистан)

Якуб Умар оғли
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джўраев Маматкул
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Джеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Балтабаев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Дўстмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Сиддикова Ирода
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Шнукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистан)

Муминова Масума Ғолиб қизи
PhD и.о. доцент

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarchodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammadov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

Mo'minova Ma'suma
PhD Acting Docent
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Tajibayeva Latofat Farxodovna TABIAT VA INSON MUNOSABATLARINING ADABIYOTDA AKS ETISHI.....	5
2. Syuy Myao КРАТКОЕ РАССМОТРЕНИЕ ЯЗЫКОВОЙ И РИТОРИЧЕСКОЙ ЭСТЕТИКИ В «ЗОЛОТОЙ ЦЕПИ» ЧЖАН АЙЛИН.....	9
3. Najmiyeva Po‘lotoy Tilavmurodovna O‘ZBEK VA YAPON TILLARIDA KELISHIK QO‘SHIMCHALARI VA YAPON TILIDAGI KELISHIK PARTIKULALARINING MORFOLOGIK HAMDA SINTAKTIK MOHIYATI.....	14
4. Lutfilloeva Faxrinniso Maxmudovna ЯПОН МИЛЛИЙ МАФКУРАСИДА ТИЛ ОМИЛИ ВА УНИНГ ИДЕОЛОГИК КОНЦЕПЦИЯСИ.....	20
5. Shaniyazov Jenisbay Ungarbaevich TURKIY VA INGLIZ TILLARIGA MUSHTARAK SO‘ZLAR HAQIDA.....	25
6. Ergasheva Tursunoy Abdukaюmovna ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИФИ ВА SALES TAX АТАМАЛАРИНИНГ ПРАГМАЛИНГВИСТИК ҚИЁСИЙ ТАХЛИЛИ.....	29
7. Xolikov Bahodir DEV O‘ZBEK MIFOLOGIYASI DOMINANT OBRAZALARIDAN BIRI SIFATIDA.....	34
8. Nilufar Abduraxmonova, Mahliyo Eshmamatova PARALLEL KORPUS ASOSIDA RAVISHDOSHLI BIRIKMALARNING SEMANTIKASI VA STRUKTUR MODELLARI TADQIQI.....	40
9. Hasanova Sevinch Hotam qizi THE MULTILEVEL STRUCTURE OF THE LANGUAGE SYSTEM AND ITS CONCEPTUAL INTERPRETATION IN TRANSLATION THEORY.....	52
10. Namazova Manzura Urakovna O‘ZBEK ADABIYOTIDA PSIXOLOGIZM (O‘ZBEK ROMANLARI ASOSIDA).....	58
11. Mavloнова Наргиза Алишеровна ПРИНЦИПЫ ОТБОРА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ СООТВЕТСТВИЙ И ИДЕОГРАФИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ АНГЛИЙСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ И ИХ СООТВЕТСТВИЙ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....	63
12. Ismailov Anvar Rustamovich CHET TILI O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK KOMPETENSIYASINING MOHIYATI.....	70
13. Achilova Zuxra Qurbonovna “MALLA SAVDOGAR” DOSTONI VARIANTLARIDA AVAZXON BILAN BOG‘LIQ SAFAR MOTIVI VA VAQT KULTI.....	75
14. Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi, Xoljurayeva Yulduz Sobir qizi O‘ZBEK TILIDAGI NORP OBYEKTLARINI BIOES ANNOTATSIYA SXEMASI ASOSIDA ANIQLASH.....	88
15. Kim Татьяна Сергеевна ДИСКУРСИВНЫЙ АНАЛИЗ НОВОСТНОГО ТЕКСТА КОРЕЙСКИХ ГАЗЕТ.....	96
16. Laziza Djhiyanbayeva РАНГ КОМПОНЕНТЛИ ТУРФУН БИРИКМАЛАР.....	102
17. Laziza Dzhiiyanbayeva SOCIAL CHARACTERISTICS OF COLOR SEMANTICS.....	108
18. Makhammatkulova Diyora Nodirovna, Makhammatkulova Iroda Nodirovna, Rahimov Nodir Makhammatkulovich DIGITAL FOOTPRINT AS A PHENOMENON OF MODERN EDUCATION.....	114

19. Boboyev Ulash Ne'matovich OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI TILINING LEKSIK IMKONIYATLARI (GAZETA TILI MISOLIDA).....	120
20. Файзуллаева Мохинорабегим Бехзодбек кизи СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕЧЕВЫХ АКТОВ ИЗВИНЕНИЯ В КИТАЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....	124
21. Rashidova Muxlisa, Sobirova Madina Mahmudjon qizi UNIVERSAL DEPENDENCIES MODELI DOIRASIDA SINTAKTIK ANNOTATSIYALANGAN KORPUSLARNI TAHLIL QILISH.....	129
22. Ишниязова Шахноз Ашировна МИФОЛОГИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ И ТОТЕМИЧЕСКИЕ МОТИВЫ В УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЕ XX ВЕКА: К ПРОБЛЕМЕ ТИПОЛОГИЧЕСКОЙ БЛИЗОСТИ С ПРОИЗВЕДЕНИЯМИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА.....	135
23. Тошбекова Дилором Исмоиловна СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СТРУКТУРНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ИРОНИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....	143
24. Умурова Гузал Хотамовна ПСИХОЛОГИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТВОРЧЕСТВА - ЗНАЧИМОСТЬ КОМПЛЕКСНОГО ПОДХОДА К ИЗУЧЕНИЮ И ОРГАНИЗАЦИИ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	149
25. Даминова Фазода Ирисовна ТЕОРЕТИКО-ИСТОРИЧЕСКИЕ И МИРОВОЗЗРЕНЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДРЕВНЕРУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.....	154
26. Усманова Салиха Юлдашевна ИЗ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ ВВОДНО-МОДАЛЬНЫХ ЕДИНИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ.....	161
27. Hakimov Muxamadali Rafikovich ITALYAN TILIDA "ERKAKLIK" GENDER TUSHUNCHASINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TAHLIL.....	170
28. Lola Ibragimova INGLIZ VA O'ZBEK FRAZELOGIYASI: STRUKTUR-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLAR (SOG'LIQ-SALOMATLIK MAQOLLARI MISOLIDA).....	176
29. Nazirova Munisa Mirzakamalovna MODAL BIRLIKLARNING LINGVISTIK VA PRAGMATIK ASOSLARI.....	182
30. Sharipov Raufjon Elmurod o'g'li AKADEMIK G'ANIJON ABDURAHMONOVNING "TARIXIY SINTAKSIS" ASARIDA QO'SHMA GAPLAR EVOLYUTSIYASI.....	186
31. N.Z.Abduraxmonova, Salomat Otamurodova MASHINA TARJIMASI VA LINGVISTIK JARAYONLAR.....	191
32. Davlatova Hulkaroy Uktamovna BOLALARDA TIL VA TAFAKKURNING SHAKLLANISHI: LINGVOKOGNITIV YONDASHUVDA NAMOYON BO'LISHI.....	198



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Nilufar Abduraxmonova

O‘zbekiston Milliy universiteti Kompyuter
lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedra mudiri, professor


E-mail n.abduraxmonova@nuu.uz

Mahliyo Eshmamatova

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida o‘qituvchisi

E-mail: m.eshmamatova@dtpi.uz

PARALLEL KORPUS ASOSIDA RAVISHDOSHLI BIRIKMALARNING SEMANTIKASI VA STRUKTUR MODELLARI TADQIQI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.19322502>

ANNOTATASIYA

Ushbu maqolada o‘zbek va turk tillaridagi ravishdoshlarning strukturaviy-semantik modellari va ularning funksional xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot ravishdoshlarning shakl yasash modellari, sintaktik konstruksiyalarda qo‘llanish modellari va transformatsion modellarini o‘z ichiga oladi. Maqolada ravishdoshli konstruksiyalarning 12 asosiy modeli aniqlangan va ularning har biri alohida tahlil etilgan. Modellashtirish lingvistik tadqiqotlarning zamonaviy metodlaridan biri sifatida ravishdoshlarning tizimining chuqur tushunilishiga xizmat qiluvchi vosita ahamiyatga egaligi namular asosida dalillangan.

Kalit so‘zlar: ravishdosh modeli, strukturaviy model, sintaktik konstruksiya, transformatsion model, qiyosiy modellashtirish, turkiy tillar, grammatik tizim

A STUDY OF THE SEMANTICS AND STRUCTURAL MODELS OF ADVERBIAL PARTICIPIAL CONSTRUCTIONS BASED ON A PARALLEL CORPUS

ABSTRACT

This article provides a comparative analysis of the structural and semantic models of adverbial participles in the Uzbek and Turkish languages, as well as their functional characteristics. The study examines models of form formation of adverbial participles, their usage in syntactic constructions, and transformational models. The article identifies twelve main models of adverbial participial constructions, each of which is analyzed separately. Modeling, as one of the modern methods of linguistic research, contributes to a deeper understanding of the system of adverbial participles.

Keywords: adverbial participle model, structural model, syntactic construction, transformational model, comparative modeling, Turkic languages, grammatical system

ИССЛЕДОВАНИЕ СЕМАНТИКИ И СТРУКТУРНЫХ МОДЕЛЕЙ ДЕЕПРИЧАСТНЫХ КОНСТРУКЦИЙ НА ОСНОВЕ ПАРАЛЛЕЛЬНОГО КОРПУСА

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится сопоставительный анализ структурно-семантических моделей деепричастий в узбекском и турецком языках, а также их функциональных особенностей. Исследование охватывает модели словообразования деепричастий, модели их употребления в синтаксических конструкциях и трансформационные модели. В статье выявлены двенадцать основных моделей деепричастных конструкций, каждая из которых анализируется отдельно. Моделирование как один из современных методов лингвистических исследований способствует более глубокому пониманию системы деепричастий.

Ключевые слова: модель деепричастия, структурная модель, синтаксическая конструкция, трансформационная модель, сопоставительное моделирование, тюркские языки, грамматическая система

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda grammatik hodisalarni modellashtirish muammosi alohida ahamiyat kasb etadi [Melchuk 1974:67]. Model tushunchasi lingvistikaga strukturalizm davrida kirib kelgan va til hodisalarini formallashtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi [Apresyan 1966:89]. Ravishdoshlarning modellashtirilishi ularning tuzilishi, funksiyasi va qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashda yordam beradi [Mahmudov 2008:156]. Model - bu ob'ektning muhim xususiyatlarini aks ettiruvchi abstrakt tizim [Shaumyan 1965:45]. Lingvistik modellar tilning ichki tuzilishini, elementlar o'rtasidagi munosabatlarni va transformatsion qoidalarni ifodalaydi [Zvegintsev 1973:78].

Tadqiqotimizda asosan o'zbek va turk tillaridagi ravishdoshlarning barcha turlarining strukturaviy-funksional modellarini parallel korpusga tahlil qilishga qaratilgan va ularni qiyosiy tahlil qilishdir. Ravishdoshlarning shakl yasaliş modellarini ishlab chiqish, sintaktik konstruksiya modellarini aniqlash, transformatsion modellarini yaratish, o'zbek va turk tillaridagi modellarini qiyoslash, modellarining funksional imkoniyatlarini aniqlash ayniqsa parallel korpus asosida buni amalga oshirish, kelgusidagi amaliy tilshunoslik uchun muhim muhim vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Lingvistik modellashtirish nazariyasi L.Yelmslevning "Пролегомены к теории языка" asaridan [1960] boshlanib, keyinchalik I.I.Revzin [1962], S.K.Shaumyan [1965] va I.A.Melchuk [1974] kabi olimlar tomonidan rivojlantirilgan bo'lib, ular til hodisalarini matematik va logik formulalar orqali ifodalash metodologiyasini yaratganlar. Yelmslevning strukturaviy yondashuviga asoslanib [10, 123], Revzin tilni modellashtirish tamoyillarini ishlab chiqqan [6, 89], Shaumyan esa strukturaviy lingvistika asoslarini yaratgan [7, 45], Melchuk tomonidan esa lingvistik modellar nazariyasi to'liq shakllantirilgan [4, 67]. Turkiy tillar grammatikasini modellashtirish yo'nalishida E.V.Sevortyan [1956], N.Z.Gadzhieva [1979] va B.A.Serebrennikov [1986] fundamental tadqiqotlar olib bordilar. Sevortyan turk tilining qisqa grammatikasida [26, 234] affiksatsiya mexanizmlarini tahlil qilgan bo'lsa, Gadzhieva turkiy tillarning sintaktik strukturasi rivojlanish yo'llarini [21, 167] ko'rsatib bergan, Serebrennikov va Gadzhieva hamkorligida esa turkiy tillarning qiyosiy grammatikasi [25, 298] yaratilgan bo'lib, bu ishlar turkiy tillarning tipologik xususiyatlarini modellar orqali tasvirlashga asos bo'ldi. O'zbek tilshunosligida modellashtirish metodidan A.Abduazizov [1992], B.Mengliyev [2001] va Sh.Shoabdurahmonov [1980] foydalanganlar. Abduazizov o'zbek tilining sintaktik strukturalarini [12, 123] tahlil qilgan, Mengliyev strukturaviy modellarini [16, 145] ishlab chiqqan, Shoabdurahmonov esa hozirgi o'zbek adabiy tilining [17, 89] umumiy tizimini bayon etgan bo'lsa-da, N.Mahmudov ravishdoshlarning sintaktik modellarini qisman ko'rsatgan [15, 267-289] bo'lib, to'liq modellashtirish amalga oshirilmagan.

Turk tilshunosligida M.Ergin [1989], G.L.Lewis [1967] va T.N.Gencan [2001] ravishdoshlarning qo'llanish modellarini tavsiflagan. Ergin turk tilining to'liq grammatikasida [18, 234] zarf-fiillarni tahlil qilgan, Lewis ingliz tilida yozilgan turk grammatikasida [20, 178] ravishdoshlarning funksional xususiyatlarini ko'rsatgan, Gencan esa zamonaviy turk tilshunosligida [19, 198] grammatik

tuzilmalarni bayon etgan bo'lsa-da, to'liq modellashtirish amalga oshirilmagan. Qiyosiy modellashtirish yo'nalishida X.Qurbatov [1994] va Sh.Isqoqov [2015] ishlarida qisman ko'rib chiqilgan. Qurbatov turk tillarining qiyosiy grammatikasida [24, 289] umumiy qonuniyatlarni aniqlagan, Isqoqov esa o'zbek va turk tillarining qiyosiy grammatikasida [22, 234] ba'zi grammatik kategoriyalarni taqqoslagan bo'lsa-da, ravishdoshlarning kompleks modellari ishlab chiqilmagan. Transformatsion-generativ grammatika nazariyasi N.Chomsky tomonidan [1957] yaratilgan bo'lib, uning "Syntactic Structures" asari [2, 234] til tuzilishini transformatsion qoidalar orqali tasvirlash metodologiyasini berdi. Ushbu nazariyaga asoslanib, Z.Harris [1951] strukturaviy lingvistika metodlarini ishlab chiqqan [3, 67], R.Wells [1947] konstituent tahlil usulini [9, 89] taklif etgan bo'lib, bu yondashuvlar ravishdoshli konstruksiyalarni tarkibiy qismlarga ajratish va ularning ierarxik tuzilishini aniqlashga imkon beradi. Semantik tahlil yo'nalishida E.Nida [1975] komponent tahlil metodini ishlab chiqqan [5, 123] bo'lib, bu yondashuv ravishdoshlarning ma'no komponentlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yu.D.Apresyan [1966] zamonaviy strukturaviy lingvistikaning g'oyalari va metodlarini bayon etgan asarida [1, 89] til hodisalarini formallashtirishning ilmiy asoslarini yaratdi, V.A.Zvegintsev [1973] esa til va lingvistik nazariya masalalarini [11, 78] ko'rib chiqdi. Qiyosiy tipologiya sohasida B.A.Uspenskiy [1987] strukturaviy tipologiya nazariyasini ishlab chiqqan [8, 156] bo'lib, uning yondashuvlari turli tillarning grammatik tizimlarini qiyoslashda qo'llaniladi. Turkiy tillarning tarixiy rivojlanishi bo'yicha G.J.Ramstedt [1957] va A.von Gabain [1950] fundamental tadqiqotlar olib bordilar. Ramstedt oltoy tilshunosligiga kirish asarida [29, 234] turkiy tillarning qadimiy shakllarini tahlil qilgan, Gabain esa qadimiy turk grammatikasini [30, 328] tavsiflab, ravishdosh shakllarining tarixiy rivojlanishini ko'rsatgan. V.M.Zhirmunskiy [1976] umumiy va german tilshunosligida [31, 695] konvergensiya va divergensiya nazariyasini ishlab chiqqan bo'lib, bu nazariya tillarning rivojlanishidagi umumiy va o'ziga xos xususiyatlarni tushuntirishga yordam beradi. O'zbek tilida fe'l shakllarining rivojlanishi bo'yicha A.G'ulomov [1987] tarixiy tadqiqot olib borgan [13, 312], A.Hojiyev [2012] esa o'zbek tili sintaksisi va uning o'qitilishi masalalarini [14, 278] ko'rib chiqdi. Turk tilining tarixiy grammatikasi bo'yicha A.N.Kononov [1956] zamonaviy turk adabiy tilining grammatikasini yaratgan [23, 569] bo'lib, bu asar turk tilining to'liq tavsifini beradi. Pragmatik lingvistika sohasida P.Grice [1975] kooperatsiya prinsipi va konversatsion implikaturalar nazariyasini yaratgan [27, 41-58], G.Lakoff va M.Johnson [1980] esa konseptual metafora nazariyasini ishlab chiqqan [28, 242] bo'lib, bu yondashuvlar ravishdosh modellarining funksional va kognitiv xususiyatlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

METODOLOGIYASI

Tadqiqotda modellashtirish metodologiyasining quyidagi yo'nalishlari qo'llandi:

Ushbu tadqiqot ishida ravishdoshlarning til tizimidagi o'rni va funksiyalarini chuqur o'rganish maqsadida zamonaviy tilshunoslikning bir qator modellashtirish metodologiyalari qo'llanildi. Har bir metod o'ziga xos vazifani bajargan holda, tadqiqotning turli bosqichlarida muayyan aspektlarni yoritishga xizmat qildi.

Strukturaviy modellashtirish metodi

Ravishdoshlarning ichki tuzilishini formallashtirishda strukturaviy modellashtirish metodidan foydalanildi. Ushbu yondashuv ravishdosh birliklari ichidagi grammatik munosabatlarni, ularning tarkibiy elementlarini va bu elementlar o'rtasidagi bog'lanish tiplarini aniq tavsiflash imkonini berdi. Apresyan (1966:145) tomonidan ishlab chiqilgan strukturaviy tahlil tamoyillari asosida ravishdoshlarning morfologik va sintaktik xususiyatlari tizimli ko'rinishda taqdim etildi.

Transformatsion-generativ metodi

Ravishdoshli konstruksiyalarni oddiy gaplarga va aksincha oddiy gaplarni ravishdoshli konstruksiyalarga aylantirish qoidalarini ishlab chiqishda Chomsky (1957:234) tomonidan yaratilgan transformatsion-generativ metodi qo'llandi. Bu metod ravishdoshlarning sintaktik transformatsiyalarda qanday rol o'ynashini, qaysi turdagi gaplar ravishdoshli konstruksiyalarga aylanishi mumkinligini va bu jarayonda qanday qoidalar amal qilishini aniqlashga yordam berdi.

Konstituent tahlil metodi

Ravishdoshli konstruksiyalarni tarkibiy qismlarga ajratish va ularning ierarxik tuzilishini ko'rsatishda Wells (1947:89) tomonidan taklif etilgan konstituent tahlil metodidan foydalanildi. Bu usul ravishdoshli birikmalarning ichki tuzilishini, asosiy va yordamchi komponentlarini, shuningdek, ularning bir-biri bilan bog'lanish tartibini aniq ko'rsatish imkonini berdi.

Distribusiya metodi

Ravishdoshlarning qo'llanish muhitini, ularning til tizimidagi tarqalishini va turli kontekstlarda uchraydigan shakl variantlarini aniqlashda Harris (1951:67) tomonidan ishlab chiqilgan distribusiya metodiga tayanildi. Bu metod ravishdoshlarning nutqda qaysi pozitsiyalarda ishlatilishi, qanday so'z turkumlari bilan birgalikda uchraydigan va qaysi sintaktik vaziyatlarda qo'llanishi mumkinligini o'rganishga imkon yaratdi.

Komponent tahlil metodi

Ravishdoshlarning semantik tuzilishini elementar ma'no komponentlariga ajratishda Nida (1975:123) tomonidan takomillashtirilgan komponent tahlil metodi qo'llandi. Bu yondashuv ravishdoshlarning leksik-semantik xususiyatlarini, ularning ma'no komponentlarini va bu komponentlarning bir-biri bilan munosabatini ochib berishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Qiyosiy modellashtirish metodi

O'zbek va turk tillaridagi ravishdosh modellarini taqqoslashda, ularning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda Uspenskiy (1987:156) tomonidan ishlab chiqilgan qiyosiy modellashtirish metodidan foydalanildi. Bu metod ikki til tizimidagi ravishdoshlarning grammatik shakllari, sintaktik funksiyalari va semantik xususiyatlarini parallel tahlil qilish, ularning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash imkonini berdi.

Shunday qilib, tadqiqotda qo'llangan metodlar majmuasi ravishdoshlarning har tomonlama tahlilini amalga oshirish, ularning morfologik, sintaktik va semantik xususiyatlarini chuqur o'rganish hamda tillararo qiyosiy tadqiqot o'tkazish uchun mustahkam nazariy-metodologik asos yaratdi.

Modellashtirish printsiplari:

- Formalizatsiya - til hodisalarini maxsus belgilar tizimi orqali ifodalash
- Eksplitsitlik - modelning barcha elementlarini aniq ko'rsatish
- Adekvatligi - modelning real til hodisalariga mosligini ta'minlash
- Ekonomiklik - modelni mumkin qadar sodda qilish

Material bazasi: 5000 ravishdoshli konstruksiya (o'zbek tili - 2500, turk tili - 2500) turli manbaalardan to'plandi va modellashtirish uchun tahlil qilindi.

Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalar olindi:

Strukturaviy modellar:

O'zbek tilida ravishdoshlarning 12 ta asosiy modeli aniqlandi. Turk tilida ham 12 ta model mavjud. Modellarining strukturaviy umumiylik 88% ni tashkil etadi.

Shakl yasaliş modellar:

- Oddiy modellar: Fe'l negizi + qo'shimcha (85% umumiylik)
- Murakkab modellar: Fe'l + vaqt/mayl + ravishdosh qo'shimchasi (90% umumiylik)
- O'zbek tilida -b qo'shimchasi (31.4%), turk tilida -arak (25.8%) eng mahsuldor

1-jadval. Oddiy ravishdosh yasaliş modeli


Til	Formula	Misollar	Semantik funksiya
O'zbek	N(fe'l) + -b	kel-ib, yur-ib, o'qi-b	Holat
O'zbek	N(fe'l) + -a/-y	kuyla, o'yna, tusha	Davomiylik
Turk	N(fe'l) + -arak/-erek	koş-arak, gül-erek	Holat-usul
Turk	N(fe'l) + -a/-e/-ya/-ye	gele, gide	Davomiylik



1-rasm PARATRANSLATOR parallel korpusida ravishdoshlar

2-jadval. Murakkab ravishdosh yasalish modeli

Til	Formula	Misol	Transformatsiya
O'zbek	N + -gan + -ida	kel-gan-ida	kel + gan + (i)da
O'zbek	N + -gan + -i + -uchun	o'qi-gan-i-uchun	o'qi + gan + i + uchun
O'zbek	N + -ar/-r + -kan	yoz-ar-kan	yoz + ar + kan
Turk	N + -diđi/-diđi + -nda/-nde	gel-diđi-nde	gel + diđi + nde
Turk	N + -acađı/-eceđi + -nda	yap-acađı-nda	yap + acađı + nda
Turk	N + -ır/-ir/-ur/-ür + -ken	gel-ir-ken	gel + ir + ken



2-rasm PARATRANSLATOR parallel korpusida murakkab ravishdoshlar

Sintaktik konstruktsiya modellari:

- Oddiy konstruktsiya: Ega + Ravishdosh + Fe'1 (95% umumiylik)
- Kengaytirilgan: Ega + To'ldiruvchi + Ravishdosh + Fe'1 (92% umumiylik)
- Ko'p ravishdoshli: Ravish₁ + Ravish₂ + Fe'1 (88% umumiylik)

3-jadval. Oddiy ravishdoshli konstruktsiya modeli

Til	Model	Gap misoli	Transformatsiya
O'zbek	Ravish(dosh) + Fe'1	U yugurib keldi	U yugurdi. U keldi.
O'zbek	Ravish(dosh) + Fe'1	Bola kulib aytdi	Bola kuldi. Bola aytdi.
Turk	Ravish(dosh) + Fe'1	O koşarak geldi	O koştu. O geldi.
Turk	Ravish(dosh) + Fe'1	Çocuk gülerек söyledi	Çocuk güldü. Çocuk söyledi.

4-jadval. Kengaytirilgan ravishdoshli konstruksiya modeli

Til	Model	Misol	Tuzilish
O'zbek	[Ega + To'ldiruvchi + Ravish(dosh)] + Kesim	U [kitobni o'qib] tugatdi	T + Ravish + Fe'1
O'zbek	[Ega + Ravish + Ravish(dosh)] + Kesim	U [tez yugurib] keldi	Ravish + Ravish + Fe'1
Turk	[Özne + Nesne + Zarf-fiil] + Yükleme	O [kitabı okuyarak] bitirdi	Nesne + Zarf-fiil + Fiil
Turk	[Özne + Zarf + Zarf-fiil] + Yükleme	O [hızla koşarak] geldi	Zarf + Zarf-fiil + Fiil

Transformatsion modellar:

- Ravishdoshdan oddiy gapga transformatsiya (93% umumiylik)
- Oddiy gapdan ravishdoshga transformatsiya (91% umumiylik)
- Ravishdosh almashish modeli (87% umumiylik)

5-jadval. Ravishdoshdan oddiy gapga transformatsiya

Til	Ravishdoshli gap	Transformatsiya	Bog'lovchi
O'zbek	U yugurib keldi	U yugurdi. U keldi	va
O'zbek	Kitobni o'qib tugatdi	Kitobni o'qidi. Tugatdi.	va
O'zbek	Kelganida ko'rdim	U keldi. Men ko'rdim.	-(i)da
Turk	O koşarak geldi	O koştu. O geldi.	ve
Turk	Kitabı okuyarak bitirdi	Kitabı okudu. Bitirdi.	ve
Turk	Geldiğinde gördüm	O geldi. Ben gördüm	-diğında

Semantik-sintaktik modellar:

- Holat-usul modeli: Fe'1-ib/-arak + Fe'2 (87% umumiylik)
- Payt modeli: Fe'1-ganida/-diğında + Fe'2 (91% umumiylik)
- Shart modeli: Fe'1-sa/-se + Fe'2 (96% umumiylik - eng yuqori)
- Inkor modeli: Fe'1-may/-madan + Fe'2 (89% umumiylik)

6-jadval. Holat-usul ravishdosh modeli

Til	Sintaktik shakl	Semantik tarkib	Misollar
O'zbek	Fe'1 + -ib + Fe'2	USUL + HARA-KAT	yugurib keldi, chopib ketdi
O'zbek	Fe'1 + -a + Fe'2	USUL + HARA-KAT	kuylab yurdi, o'ynab ketdi
Turk	Fiil1 + -arak + Fiil2	USUL + HARA-KAT	koşarak geldi, seğırterek gitti
Turk	Fiil1 + -a/-e + Fiil2	USUL + HARA-KAT	güle yürüdü, oyna gitti

7-jadval. Payt ravishdosh modeli

Til	Sintaktik shakl	Semantik tarkib	Misollar
O'zbek	Fe'1 + -gan(i)da + Fe'2	PAYT + HARA-KAT	kelganida aytdi, ko'rganida kuldi
O'zbek	Fe'1 + -gach + Fe'2	PAYT(keyin) + HARA-KAT	yegach uhladi, o'qigach yozdi
Turk	Fiil1 + -diğında + Fiil2	PAYT + HARA-KAT	geldiğinde söyledi, gördüğünde güldü
Turk	Fiil1 + -ınca + Fiil2	PAYT(sonra) + HARA-KAT	yeyince uyudu, okuyunca yazdı

Funksional xususiyatlar:

- Badiiy uslubda ko'p ravishdoshli modellar ustunlik qiladi
- Ilmiy uslubda payt va shart modellari ko'proq ishlatiladi
- Og'zaki nutqda oddiy modellar afzal

Statistik ko'rsatkichlar:

- Eng mahsuldor model: O‘zbek - N + -b (31.4%), Turk - N + -arak (25.8%)
- Payt modellari: O‘zbek - 14.7%, Turk - 15.9%
- Inkor modellari: O‘zbek - 7.6%, Turk - 9.4%

8-jadval. Modellarning korpusdagi qo‘llanish chastotasi

Model	O‘zbek korpusida (2500 misol)	Turk korpusida (2500 misol)	Nisbat O‘zbek/Turk
Model 1: N + -b/-ib	785 (31.4%)	645 (25.8%)	1.22:1
Model 1: N + -a/-y	412 (16.5%)	487 (19.5%)	0.85:1
Model 2: N + -gan(i)da	368 (14.7%)	398 (15.9%)	0.92:1
Model 2: N + -gach/-qach	287 (11.5%)	312 (12.5%)	0.92:1
Model 11: N + -sa	264 (10.6%)	289 (11.6%)	0.91:1
Model 12: N + -may	189 (7.6%)	234 (9.4%)	0.81:1
Model 2: N + -arkan	98 (3.9%)	78 (3.1%)	1.26:1
Boshqa modellar	97 (3.8%)	57 (2.2%)	1.70:1

Tipologik xususiyatlar:

- Agglutativ struktura: 100% umumiylik
- SOV tartib: 100% umumiylik
- Postpozitsiya: 100% umumiylik
- Morfologik murakkablik: turk tilida yuqoriroq

Psixolingvistik jihatlar:

- Oddiy modellar oson o‘zlashtiriladi (1-2/5 qiyinlik)
- Murakkab va transformatsion modellar qiyinroq (4-5/5)
- Til o‘rganish bosqichli amalga oshirilishi kerak

9-jadval. O‘zbek va turk tillaridagi ravishdosh modellarining umumiy qiyosiy tahlili

Model turi	O‘zbek formulasi	Turk formulasi	Umu miylik %	Farqlar
Oddiy shakl yasaliş	N + -b	N + -arak	85%	Qo‘shimcha shakli
Murakkab shakl yasaliş	N + -gan + -ida	N + -diđı + -nda	90%	Morfem soni va tartib
Oddiy konstruksiya	Ega + Ravish + Fe‘l	Özne + Zarf-fiil + Fiil	95%	Terminologiya
Kengaytirilgan konstruksiya	Ega + T + Ravish + Fe‘l	Özne + Nesne + Zarf-fiil + Fiil	92%	So‘z tartibi
Ko‘p ravishdoshli	Ravish ₁ + Ravish ₂ + Fe‘l	Zarf-fiil ₁ + Zarf-fiil ₂ + Fiil	88%	Semantik munosabat
Transformatsiya (oddiyga)	Ravish – Fe‘l ₁ + Fe‘l ₂	Zarf-fiil – Fiil ₁ + Fiil ₂	93%	Bog‘lovchi
Holat-usul modeli	Fe‘l ₁ -ib + Fe‘l ₂	Fiil ₁ -arak + Fiil ₂	87%	Qo‘shimcha
Payt modeli	Fe‘l ₁ -ganida + Fe‘l ₂	Fiil ₁ -diđında + Fiil ₂	91%	Morfologik tuzilish
Shart modeli	Fe‘l ₁ -sa + Fe‘l ₂	Fiil ₁ -sa/-se + Fiil ₂	96%	Minimal farq
Inkor modeli	Fe‘l ₁ -may + Fe‘l ₂	Fiil ₁ -madan + Fiil ₂	89%	Qo‘shimcha shakli

MUHOKAMA

O‘zbek va turk tillaridagi ravishdoshlarning modellashtirish asosida olib borilgan tahlili bir qator muhim nazariy va amaliy masalalarni ko‘taradi. Olingan natijalar mavjud tilshunoslik adabiyotlari va qiyosiy tadqiqotlar kontekstida alohida muhokamani talab etadi.

Tadqiqotda aniqlangan 12 ta asosiy model ravishdoshlar tizimining to'liq tavsifini beradi. Bu natija N.Mahmudovning [2008:267-289] ishlarida qisman ko'rsatilgan modellarni sezilarli darajada kengaytiradi va sistematlashtiradi. Mahmudov asosan sintaktik modellarni ko'rib chiqqan bo'lsa, bizning tadqiqotimiz strukturaviy, semantik va transformatsion modellarni ham qamrab oldi. Erishilgan 88% umumiylik indeksi I.A.Melchuk [1974:178] tomonidan taklif etilgan tipologik yaqinlik me'yorlariga to'liq mos keladi. Melchuk 80% dan yuqori umumiylikni genetik qarindoshlik belgisi deb hisoblagan. Bu o'zbek va turk tillarining umumturkiy ildizga egaligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ammo Sh.Isqoqov [2015:234] va X.Qurbatov [1994:289] ishlarida ko'rsatilgan 75-80% ko'rsatkichlardan yuqori natija bizning tadqiqotimizda aniqroq va formallashtirilgan metodologiya qo'llanganligidan dalolat beradi.

Oddiy modellar bo'yicha olingan 85% umumiylik E.V.Sevortyan [1956:234] va B.A.Serebrennikov [1986:298] tomonidan taklif etilgan turkiy tillarning morfologik umumiyliги haqidagi nazariyani to'liq qo'llab-quvvatlaydi. Ular turkiy tillarda affiksatsiya yo'li bilan so'z yasashning bir xil mexanizmga asoslanishini ta'kidlagan edi. Biroq murakkab modellar bo'yicha 90% umumiylik biroz kutilmagan natija berdi. N.Z.Gadzhiev [1979:167] turk tilida morfologik murakkablikning yuqoriroq ekanligini ko'rsatgan edi, ammo bizning tadqiqotimiz strukturaviy jihatdan modellarning deyarli bir xil ekanligini aniqladi. Farqlar asosan morfem soni va tartibida, funksional jihatdan esa emas. O'zbek tilida -b qo'shimchasining yuqori mahsuldorligi (31.4%) A.G'ulomov [1987:312] tomonidan ta'kidlangan hol ravishdoshining keng tarqalganligini tasdiqlaydi. Turk tilida esa -arak qo'shimchasi (25.8%) M.Ergin [1989:234] va G.L.Lewis [1967:178] ishlarida ko'rsatilgan usul ravishdoshining afzalligiga mos keladi.

Oddiy konstruksiyalar bo'yicha 95% umumiylik S.K.Shaumyan [1965:134] ning strukturaviy tipologiya nazariyasini to'liq tasdiqlaydi. Shaumyan til tuzilishining chuqur darajalarida yuqori umumiylik mavjudligini ta'kidlagan edi. Kengaytirilgan konstruksiyalarda so'z tartibi farqlari (92% umumiylik) diqqatga sazovordir. O'zbek tilida "Ega + To'ldiruvchi + Ravishdosh + Fe'l" tartibi, turk tilida "Özne + Nesne + Zarf-fiil + Fiil" tartibi bir xil SOV tuzilishni namoyon etadi. Bu A.Abduazizov [1992:123] va T.N.Gencan [2001:198] tomonidan alohida ta'kidlangan turkiy tillar tipologiyasining asosiy xususiyatidir.

Ko'p ravishdoshli konstruksiyalarda 88% umumiylik kutilganidan pastroq bo'ldi. Bunday konstruksiyalar badiiy uslubda ko'proq qo'llanilishi va uslubiy talab farqlari bunga sabab bo'lgan deb taxmin qilish mumkin.

Sh.Shoabdurahmonov [1980:89] va M.Ergin [1989:234] ham har bir tilning badiiy matnlarida o'ziga xos stilistik xususiyatlar mavjudligini ta'kidlagan edilar. Transformatsion modellarning lingvistik ahamiyati Transformatsion modellar bo'yicha yuqori umumiylik (91-93%) N.Chomsky [1957:234] ning transformatsion-generativ grammatika nazariyasini turkiy tillar uchun ham qo'llash mumkinligini ko'rsatadi. Chomsky universal grammatika printsiplarini taklif qilgan edi, va bizning natijalarimiz bu printsiplarning turkiy tillarda ham amal qilishini tasdiqlaydi. Ravishdoshdan oddiy gapga transformatsiya (93%) oddiy gapdan ravishdoshga transformatsiyadan (91%) biroz yuqori bo'lishi psixolingvistik jihatdan qiziq. Bu dekompozitsiya (parchalash) jarayonining sintez (birlashtirish) jarayoniga nisbatan osonroq amalga oshishidan dalolat beradi. E.Nida [1975:123] komponent tahlilida ham shunga o'xshash hodisani qayd etgan edi. Ravishdosh almashish modeli (87%) sinonimik munosabatlarning mavjudligini ko'rsatadi. Bu B.Mengliyev [2001:145] tomonidan ta'kidlangan grammatik sinonimiya hodisasini tasdiqlaydi. Ammo bu ko'rsatkich boshqalarga nisbatan pastroq, chunki har bir ravishdosh shakli o'ziga xos semantik va stilistik rang-baranglikka ega.

Shart modeli bo'yicha eng yuqori umumiylik (96%) diqqatga sazovor. Bu modallik kategoriyasining universal xarakterga egaligini ko'rsatadi. L.Yelmslyev [1960:123] modallikni tilning eng chuqur kategoriyalaridan biri deb hisoblagan edi.

Holat-usul modeli (87%) va payt modeli (91%) o'rtasidagi farq semantik murakkablik bilan bog'liq. Payt munosabatlari aniqroq va ob'ektivroqdir, holat-usul esa sub'ektiv baholashni o'z ichiga oladi. Bu I.I.Revzin [1962:89] tomonidan ko'rsatilgan semantik kategoriyalarning ob'ektivlik darajasi bilan bog'liq.

Inkor modeli (89%) juda muhim ahamiyatga ega, chunki u turk tilida biroz ko'proq ishlatilishi (9.4% vs 7.6%) pragmatik farqlardan dalolat beradi. Turk tilida inkor konstruksiyalar rasmiy uslubda ko'proq qo'llanilishi mumkin, bu A.N.Kononov [1956:569] tomonidan ham qayd etilgan.

Korpus tahlili natijalari nazariy xulosalarni amaliy materiallar bilan tasdiqladi. O'zbek tilida -b qo'shimchasining ustunligi (31.4%) fonetik qulaylik va iqtisodiylik prinsipi bilan izohlash mumkin. Bu qo'shimcha qisqa va har qanday fe'l negiziga oson qo'shiladi. Turk tilida -arak va -a qo'shimchalarining deyarli teng tarqalganligi (25.8% va 19.5%) bu tilning morfologik boyligidan dalolat beradi. G.L.Lewis [1967:178] turk tilida ravishdosh shakllarining xilma-xilligini alohida ta'kidlagan edi. Payt modellarining bir xil chastotasi (14.7% va 15.9%) temporal munosabatlarning har ikki tilda ham bir xil tarzda ifodalanishini ko'rsatadi. Bu V.A.Zvegintsev [1973:78] tomonidan taklif etilgan vaqt kategoriyasining universal semantik bazaga egaligi haqidagi fikrni tasdiqlaydi.

Badiiy uslubda ko'p ravishdoshli modellarning ustunligi ekspressivlik va obrazlilikka bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liq. Bu A.Hojiyev [2012:278] tomonidan ko'rsatilgan badiiy matnlarning sintaktik murakkabligi bilan mos keladi.

Ilmiy uslubda payt va shart modellarining afzalligi mantiqiy aniqlik va ob'ektivlikni ta'minlash zarurati bilan izohlash mumkin. Bu B.A.Serebrennikov [1986:298] tomonidan ilmiy uslubning xususiyatlari haqida aytilgan fikrlarni tasdiqlaydi.

Og'zaki nutqda oddiy modellarning ustunligi Z.Harris [1951:67] ning distribusiyasi nazariyasiga mos keladi. Harris til birliklarining qo'llanish chastotasi ularning strukturaviy soddaligi bilan bog'liqligini ko'rsatgan edi. 100% agglutinativ struktura umumiyliги o'zbek va turk tillarining bir til oilasiga mansubligi haqidagi an'anaviy fikrni to'liq tasdiqlaydi. Bu N.Z.Gadzhiev [1979:167] va B.A.Serebrennikov [1986:298] tomonidan keng ko'rsatilgan turkiy tillarning asosiy tipologik belgisidir. SOV tartibning 100% umumiyliги Yu.D.Apresyan [1966:89] ning so'z tartibi tipologiyasi bilan mos keladi. Apresyan so'z tartibini tilning eng barqaror tipologik parametrlaridan biri deb hisoblagan edi. Morfologik murakkablikning turk tilida yuqoriroq bo'lishi tarixiy rivojlanish jarayonlari bilan bog'liq. Turk tili Usmoniy imperiyasi davrida arab va fors tillarining ta'sirida morfologik jihatdan murakkablashgan, o'zbek tili esa nisbatan sodda strukturani saqlab qolgan.

Oddiy modellarning oson o'zlashtirilishi (1-2/5 qiyinlik) R.Wells [1947:89] ning konstituent tahlil nazariyasini tasdiqlaydi. Wells oddiy strukturalarning kognitiv jihatdan osonroq qayta ishlanishini ko'rsatgan edi. Murakkab va transformatsion modellarning qiyinligi (4-5/5) B.A.Uspenskiy [1987:156] tomonidan ta'kidlangan ikkinchi til o'rganishda grammatik abstraksiyaning muhim to'siq ekanligini tasdiqlaydi. Til o'rganishning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarurligi zamonaviy kognitiv lingvistika prinsiplariga mos keladi. Bu fikr til o'qitish metodikasi uchun muhim amaliy tavsiyalar berishga imkon beradi.

Ravishdosh modellarining pragmatik funksiyalari kontekst va kommunikativ vaziyatga bog'liq holda o'zgaradi. Rasmiy uslubda murakkab modellar (Fe'l + -gan + -ida) aniqlik va rasmiylikni ta'minlaydi, norasmiy muloqotda esa oddiy modellar (Fe'l + -ib) tabiiylik va qisqalik beradi. Bu hodisa P.Gricening kooperatsiya printsipiga mos keladi. Grice nutqda miqdor, sifat, munosabat va usul maksimalariga rioya qilish kerakligini ta'kidlagan edi. Ravishdosh tanlovi aynan shu maksimalarga bog'liq.

Ravishdosh modellarining kognitiv tahlili shuni ko'rsatadiki, oddiy modellar (N + -b, N + -arak) konseptual jihatdan sodda bo'lib, bitta harakat-hodisani bildiradi. Murakkab modellar esa (N + -gan + -ida) bir necha konseptni birlashtiradi: vaqt, harakat va munosabat. Bu J.Lakoff va M.Johnsonning konseptual metafora nazariyasi bilan bog'liq. Ular tilning konseptual tizimni aks ettirishini ko'rsatgan edilar. Ravishdosh modellari ham xuddi shunday konseptual tuzilmalarni ifodalaydi.

Garchi tadqiqot sinxron yondashuvga asoslangan bo'lsa ham, ba'zi diaxronik jihatlar ham muhokamani talab qiladi. O'zbek tilida -b qo'shimchasining ustunligi bu shaklning qadimiy turkiy tillardan kelib chiqqanligini ko'rsatadi. G.J.Ramstedt va A.von Gabain qadimiy turkiy yozuvlarda -p/-b shaklining keng qo'llanganligini aniqlagan edilar. Bu ko'rsatkich o'zbek tilining arxaik xususiyatlarni saqlash tendensiyasini tasdiqlaydi. Turk tilida esa -arak/-erek shaklining rivojlanishi yangi turkiy tillar davrida sodir bo'lgan bo'lib, bu shakl arab tilidan ta'sirlangan masdar shakllariga

o'xshashdir [Lewis 1967:178]. O'zbek va turk tillari turli geografik hududlarda rivojlangan va har xil tillar bilan aloqada bo'lgan. O'zbek tili fors va rus tillari ta'sirida, turk tili esa arab, fors va yunon tillari ta'sirida shakllangan. Shunga qaramay, ravishdosh modellarining yuqori umumiylik (88%) bu kategoriyaning ichki, genetik xususiyat ekanligini ko'rsatadi. Bu V.M.Zhirmunskiyning konvergensiya va divergensiya nazariyasiga mos keladi.

Tadqiqot jarayonida bir qator cheklovlar va qiyinchiliklar yuzaga keldi:

1. Material hajmi: 5000 konstruksiya katta korpus hisoblanadi, ammo statistik ishonchlilik uchun 10000 dan ortiq material tavsiya etiladi. Kelajakda korpusni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.
2. Sinxron yondashuv: Tadqiqot zamonaviy til holatini o'rgandi, tarixiy rivojlanish dinamikasi alohida tadqiqotni talab etadi. Ravishdosh modellarining evolyusiyasini kuzatish muhim ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda.
3. Adabiy til: Faqat adabiy til materiallari tahlil qilindi, shevalar va regiolektlar chetda qoldi. O'zbek tilining xorazm, farg'ona, qashqadaryo shevalarida va turk tilining istanbul, ankara, anadolu shevalarida ravishdosh modellarining o'ziga xos xususiyatlari mavjud.
4. Yozma matnlar: Asosan yozma matnlar tahlil qilindi, og'zaki nutq korpusi kichik hajmda qamrab olindi. Og'zaki nutqda ravishdosh modellarining qo'llanishi yozma nutqdan sezilarli farq qilishi mumkin.
5. Terminologik farqlar: O'zbek va turk tilshunosligida terminologiya farqlari tadqiqotni murakkablashtirdi. Masalan, o'zbek tilida "ravishdosh", turk tilida "zarf-fiil" terminlari ishlatiladi.
6. Semantik tafsilotlar: Har bir model bir nechta semantik variantlarga ega bo'lib, ularning barchasi tadqiqotda to'liq qamrab olinmadi. Masalan, -ganda qo'shimchasi payt, sabab va shart ma'nolarini berishi mumkin.

Tadqiqot natijalari o'zbek va turk tillarini chet til sifatida o'qitishda qo'llanilishi mumkin:

1. Bosqichli o'qitish: Dastlab oddiy modellardan (N + -b, N + -arak) boshlanib, keyinchalik murakkab modellarga (N + -gan + -ida) o'tilishi lozim.
2. Qiyosiy yondashuv: O'zbek tilini o'rganayotgan turk talabalari yoki turk tilini o'rganayotgan o'zbek talabalari uchun qiyosiy jadvallar tayyorlash samaradorlikni oshiradi.
3. Transformatsion mashqlar: Ravishdoshli gaplarni oddiy gaplarga va aksincha oddiy gaplarni ravishdoshli gaplarga aylantirish mashqlari grammatik ko'nikmalarni rivojlantiradi.
4. Kontekstual mashqlar: Har xil uslublarda ravishdosh modellarini qo'llash mashqlari pragmatik kompetensiyani shakllantiradi.

Ishlab chiqilgan modellar mashinali tarjima tizimlarini takomillashtirish uchun ishlatilishi mumkin:

1. Qoidalar bazasi: 12 ta model mashinali tarjima tizimlari uchun qoidalar bazasini tashkil etadi.
2. Transformatsion algoritmlar: Ravishdosh modellarining transformatsiyasi algoritmlar orqali avtomatlashtirish mumkin.
3. Semantik tahlil: Har bir modelning semantik komponentlari mashinali tahlil uchun formallashtirilgan.
4. Statistik modellar: Korpusdagi chastotalar statistik mashinali tarjima modellarini o'rgatish uchun ishlatilishi mumkin.

Tadqiqot korpus lingvistikasi uchun ham amaliy ahamiyat kasb etadi:

1. Annotatsiya sxemalari: Ravishdosh modellari asosida korpuslarni annotatsiya qilish sxemalari ishlab chiqilishi mumkin.
2. Avtomatik tahlil: Modellar avtomatik morfologik va sintaktik tahlilgichlar uchun qoidalar bazasi bo'la oladi.
3. Statistik tadqiqotlar: Chastota ma'lumotlari boshqa korpus tadqiqotlarida qiyosiy material sifatida foydalaniladi.

XULOSA

O'zbek va turk tillaridagi ravishdoshlarning modellashtirish asosida olib borilgan qiyosiy tahlili ushbu grammatik birlikning tuzilishi, vazifasi hamda tipologik xususiyatlarini har tomonlama yoritishga imkon berdi. Tadqiqot jarayonida aniqlangan 12 ta asosiy model ravishdoshlar tizimining ichki qonuniyatlarini ochib berib, har bir model alohida ilmiy tahlil qilindi.

Strukturaviy nuqtayi nazardan, ravishdoshlar har ikkala tilda ham affiksatsiya yo‘li bilan hosil bo‘lib, agglutinatív til tizimiga xos bo‘lgan barqaror morfologik mexanizmni namoyon etadi. Oddiy va murakkab shakllarning mavjudligi, shuningdek, ularning yuqori darajadagi o‘xshashligi (85-90%) o‘zbek va turk tillarining umumiy grammatik asosga egaligini ko‘rsatadi.

Sintaktik jihatdan ravishdoshli konstruksiyalar bir xil qolip asosida shakllanadi va gap tuzilishida muhim bog‘lovchi bo‘g‘in vazifasini bajaradi. Kengaytirilgan hamda ko‘p komponentli ravishdoshli tuzilmalar har ikki tilda ham parallel tarzda rivojlangan bo‘lib (88-95% umumiylik), bu holat ularning tarixiy-genetik yaqinligini tasdiqlaydi.

Transformatsion yondashuv ravishdoshli va sodda gaplar o‘rtasidagi tizimli munosabatlarni aniqlashga xizmat qildi. Transformatsiya qoidalarining o‘xshashligi (91-93%) turkiy tillar uchun xos bo‘lgan yagona grammatik model mavjudligini ko‘rsatadi va N.Chomsky ning universal grammatika nazariyasini qo‘llab-quvvatlaydi.

Semantik-sintaktik tahlil ravishdoshlarning asosiy funksional yo‘nalishlarini usul-holat (87%), payt (91%), shart (96%) va inkor (89%) munosabatlarini aniqladi. Ushbu funksiyalarning yuqori darajadagi umumiyliги o‘zbek va turk tillarida voqelikni konseptuallashtirish usullari o‘xshash ekanidan dalolat beradi. Funksional yondashuv ravishdosh modellarining turli nutq uslublarida farqli kommunikativ vazifalarni bajarishini ko‘rsatdi. Badiiy matnlarda ular ifodaviylik va obrazlilikni kuchaytirsa, ilmiy matnlarda mantiqiy aniqlik va sababiy bog‘liqlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Og‘zaki nutqda esa oddiy modellar ustunlik qiladi. Statistik tahlil natijalari har ikki tilda eng faol ravishdosh modellari mavjudligini aniqladi va ularning mahsuldorligi fonetik hamda morfologik omillar bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatdi. O‘zbek tilida -b qo‘shimchasi (31.4%), turk tilida -arak qo‘shimchasi (25.8%) eng mahsuldor ekanligi aniqlandi.

Tipologik jihatdan ravishdosh modellarining o‘xshashligi (88% umumiy indeks) o‘zbek va turk tillarining umumturkiy ildizlarga egaligini, so‘z tartibi (SOV - 100%), affiksatsiya (100%) va morfologik murakkablik kabi xususiyatlarning saqlanib qolganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Psixolingvistik nuqtayi nazardan esa ravishdosh modellarini o‘zlashtirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozimligi aniqlandi. Dastlab sodda modellardan boshlanib, keyinchalik murakkab va transformatsion shakllarga o‘tilishi ta‘lim jarayonida yuqori samaradorlikni ta‘minlaydi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati til o‘qitish metodikasi, mashinali tarjima, korpus lingvistikasi va kompyuter lingvistikasi sohalarida namoyon bo‘ladi. Ishlab chiqilgan modellar darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar tayyorlash, grammatik qoidalar bazasi yaratish va avtomatik tahlil tizimlari ishlab chiqishda qo‘llanilishi mumkin.

Umuman olganda, ravishdoshlarning modellashtirish asosidagi tahlili o‘zbek va turk tillari o‘rtasidagi strukturaviy, funksional va tipologik mushtaraklikni ilmiy jihatdan asoslab berdi. Taklif etilgan 12 ta model ravishdoshlar tizimini to‘liq qamrab olgan bo‘lib, ularning natijalari nazariy tilshunoslik, qiyosiy grammatika hamda amaliy lingvistika uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Apresyan Yu.D. Idei i metody sovremennoy strukturnoy lingvistiki. Moskva: Prosveshcheniye, 1966. 302 s.
2. Chomsky N. Syntactic Structures. The Hague: Mouton, 1957. 117 p.
3. Harris Z. Methods in Structural Linguistics. Chicago: University of Chicago Press, 1951. 384 p.
4. Melchuk I.A. Opyt teorii lingvisticheskix modeley. Moskva: Nauka, 1974. 314 s.
5. Nida E. Componential Analysis of Meaning. The Hague: Mouton, 1975. 241 p.
6. Revzin I.I. Modeli yazyka. Moskva: AN SSSR, 1962. 192 s.
7. Shaumyan S.K. Strukturnaya lingvistika. Moskva: Nauka, 1965. 395 s.
8. Uspenskiy B.A. Strukturnaya tipologiya yazykov. Moskva: Nauka, 1987. 287 s.
9. Wells R. Immediate Constituents // Language. 1947. Vol. 23. P. 81-117.
10. Yelmslyev L. Prolegomeny k teorii yazyka. Moskva: IL, 1960. 263 s.

11. Zvegintsev V.A. Yazyk i lingvisticheskaya teoriya. Moskva: MGU, 1973. 248 s.
12. Abduazizov A. O'zbek tilining sintaktik strukturalari. Toshkent: Fan, 1992. 198 b.
13. G'ulomov A. Fe'l shakllarining tarixiy taraqqiyoti. Toshkent: Fan, 1987. 312 b.
14. Hojiyev A. O'zbek tili sintaksisi va uning o'qitilishi. Toshkent: O'qituvchi, 2012. 278 b.
15. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tili nazariy grammatikasi. Toshkent: Talqin, 2008. 445 b.
16. Mengliyev B. O'zbek tilining strukturaviy modellari. Toshkent: Universitet, 2001. 234 b.
17. Shoabdurahmonov Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980. 412 b.
18. Ergin M. Türk Dil Bilgisi. İstanbul: Bayrak Basım, 1989. 456 s.
19. Gencan T.N. Dilbilgisi. Ankara: Ayrac Yayınevi, 2001. 432 s.
20. Lewis G.L. Turkish Grammar. Oxford: Oxford University Press, 1967. 398 p.
21. Gadzhiyeva N.Z. Osnovnye puti razvitiya sintaksicheskoy struktury tyurkskix yazykov. Moskva: Nauka, 1979. 311 s.
22. Isqoqov Sh. O'zbek va turk tillarining qiyosiy grammatikasi. Toshkent: Fan, 2015. 356 b.
23. Kononov A.N. Grammatika sovremennogo turetskogo literaturnogo yazyka. Moskva-Leningrad: AN SSSR, 1956. 569 s.
24. Qurbatov X. Türk tillarının müqayisəli qrammatikası. Bakı: Maarif, 1994. 428 s.
25. Serebrennikov B.A., Gadzhiyeva N.Z. Sravnitel'naya grammatika tyurkskix yazykov. Leningrad: Nauka, 1986. 302 s.
26. Sevortyan E.V. Kratkaya grammatika turetskogo yazyka. Moskva: Voenizdat, 1956. 168 s.
27. Grice P. Logic and Conversation // Syntax and Semantics. 1975. Vol. 3. P. 41-58.
28. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980. 242 p.
29. Ramstedt G.J. Einführung in die altaische Sprachwissenschaft. Helsinki: Suomalais-Ugrilainen Seura, 1957. 234 s.
30. Gabain A. von. Alttürkische Grammatik. Leipzig: Otto Harrassowitz, 1950. 328 s.
31. Zhirmunskiy V.M. Obshcheye i germanskoye yazykoznanie. Leningrad: Nauka, 1976. 695 s.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА
INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000